

FOLKLOR AN'ANALARI ORQALI BOLALAR TASAVVUR DARAJASINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK TERAPIYANING O'RNII

Rajabova Go'zal Zarifovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasii o'qituvchisi

Sulaymonova Gulbahor

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-MTPP23 (2-kurs)guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni folklor an'analari asosida shaxslilik sifatlarini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional tizimi takomillashtirish va bolalarda folklor an'alari orqali tasavvur, ijodkorlik sifatleri rivojlantirish hqaida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: shaxslilik sifatleri, folklor, semantik moslashuvchanlik, obrazli moslashuvchanlik, ijodkorlik sifatleri.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni folklor an'analari orqali shaxsini rivojlantirish ta'lim maqsadlariga kompleks yondashuvda adaptiv texnologiyalarni shaxsga yo'naltirilgan ta'limga muvofiqLashtirish asosida takomillashtirish ijodkorlik samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan. Bu borada belgilangan vaziflardan biri maktabgacha yoshdagi bolalarning tasavvur darajasi bilan xavotirlanish holatlari orasidagi bog'liqlikni aniqlashdir. Buning uchun Maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur darajasini aniqlash so'rovnomasi hamda R.Temml, M.Dorki, V.Amenlar "Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi natijalari orasidagi bog'liqlikni o'rganishdan iborat. Bola shaxsining shakllanishida "psixologik ta'sirni ham muayyan faoliyatning psixologik asosini o'zgartirishga olib keladigan jarayon sifatida ham, natijada ham (haqiqiy o'zgarish) deb hisoblash mumkin".

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur darajasini aniqlash so'rovnomasi hamda R.Temml, M.Dorki, V.Amenlar "Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalari

Omillar	Tasavvur darajasi	Semantik moslashuvchanlik	Obrazli moslashuvchanlik
O'z-o'zini qadrlash darajasi	0,39*	-0,61	0,14
O'z-o'zini hurmat qilish darajasi	0,61*	0,08	0,31*
O'ziga bo'lgan ishonch darajasi	0,32*	0,26*	0,44*

Olingan natijalarga ko'ra bolalarning tasavvurlar darajasi o'z-o'zini qadrlash ($r=0,39$; $p \geq 0,05$), o'z-o'zini hurmat qilish ($r=0,61$; $p \geq 0,05$), o'ziga bo'lgan ishonch ($r=0,32$; $p \geq 0,05$) xususiyati bilan ijobiiy korrelyatsiya bergan. Mazkur holat bolaning tafakkur orginalligini ko'rsatiuvchi tasavvurlar darajasi bola o'ziga adekvat baho berganilgi tufayli yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, o'z-o'zini qadrlash bolani o'zini iqtidori, qobiliyati, shaxs sifatida o'zini qabul qilishi bilan bog'liq o'ziga

nisbatan qadriyat deb bilishni anglatadi. Bola o'zini qadrlar ekan ijodiy olamidagi iqtidori, shu jumladan, milliy yo'nalishdagi iqtidorini namoyon qiladi. Qolaversa, mazkur holatning ikkinchi tomoni ham borki, bunda xalq og'zaki ijodi asarlari bolada milliy g'urur, iftixorni, o'z millati bilan shaxsiy identifikasiya hissi orqali o'zlikni anglashni shakllantirishi uning ijodiy imkoniyatini, tasavvurlari ko'lamini kengayishini, estetik hislarini tarbiyalanishini ta'minlaydi. Shunday ekan, aytish mumkinki, o'z-o'zini qadrlashni biladigan bola millati, etnik qatlamini ham qadrlaydi. Natijada milliy kuy-qo'shiqlarga mehri o'zgacha bo'ladi. Bu esa ularda estetik, axloqiy hislar bilan bog'iq holda tasavvurlar ko'lamini kengayishiga, ijodkorlik imkoniyatlarini ortishiga olib keladi.

O'z-o'zini hurmat qilish bolaning o'z qadr-qimmati, qobiliyatlari, axloqiga nisbatan ishonch hissi bilan bog'liq. Bundan tashqari, o'z-o'zini hurmat qilish bolaning o'zi va shaxsiy emotsional holati haqidagi qarashlari bilan bog'liq jarayondir. Shunday ekan, o'zini qadrlagan bola, o'zini hurmat ham qiladi. O'zini hurmat qilish darajasi yuqori bo'lgan bolada faoliyatdan zavqlanish hissi ham yuqori bo'ladi. Mazkur holat esa bolaning tasavvurlar olamini kengayib borishida ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'ziga bo'lgan ishonch esa bolani ijtimoiy dadilligini oshiradi. Bizga ma'lumki, ijtimoiy dadil bolalar yangi obyektlar bilan tanishishda, ular bilan ishlashdagi qo'rquv hissini yengib o'ta oladilar. Natijada turli xildagi obrazlar bilan ishlash orqali ularning tasavvurlar olami kengayib boradi. Ayniqsa, milliylikni targ'ib qiluvchi folklor asarlari bolada milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish bilan bir qatorda uning tafakkuri, dunyoqarashini, ichki sezgirligini oshirishga xizmat qiladi.

Bola shaxsini shakllantirishda semantik moslashuvchanlik bilan o'ziga bo'lgan ishonch ($r=0,26$; $p \geq 0,05$) orasida ham ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Mazkur holat bola psixik strukturasidagi axborotlar jamlanmasini yangi muhit, axborot oqimiga moslashuvchanligi bilan bog'liq bo'lib, bolaning qabul qilgan qarorlari, fikrlariga nisbatan ishonchining yuqoriligiga asoslanadi. O'ziga ishonchi baland bola axborotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlash, uzatish, to'plash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda dadilligini namoyon qiladi. Mazkur holat ham bolaning milliy an'analar bilan bog'liq shakllanishida muhim o'ringa ega. Chunki bola milliy axborotlarni, urf-odatlarini qabul qilishda, hayotiga tatbiq etishda dadilligi bilan ajralib turadi.

Navbatdagi mezon esa obrazli moslashuvchanlik bo'lib, u o'z-o'zini hurmat qilish ($r=0,31$; $p \geq 0,05$), o'ziga bo'lgan ishonch ($r=0,44$; $p \geq 0,05$) xususiyatlari bilan ijobiy korrelyatsiya bergan. Obrazli moslashuvchanlik tafakkur orginalligini ko'rsatuvchi mezonlardan biri bo'lib, yangi ma'lumotlarni izlash, masalani yechimiga yangicha talqinda yondashish, kreativ fikrlashni nazarda tutadi. Shunday ekan, bola o'zini hurmat qilsa, o'z iqtidori, fikrlari qarashlarini qadrlaydi va ularni amalga oshirish uchun o'z imkoniyatlarini safarbar etadi. Shunday ekan, milliy folklor an'alarining bola psixik taraqqiyotiga ta'siri nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, o'zini hurmat qiladigan, o'zini millat vakili sifatida qabul qiladigan bola o'z ijodiy imkoniyatlari, milliy qo'shiqlardagi obrazlarni yangicha talqin qilish, ularni shaxsni o'zi bilan uyg'unlashtirish holati kuchayadi. Natijada, mazkur ikki fenomen orasida ijobiy bog'lanishlar kuzatiladi.

Shu jumladan, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ham obrazlar moslashuvchanligini oshiradi. Mazkur holat boladagi o'z imkoniyatlarini to'g'ri

baholash va ijtimoiy dadillikni shakllanishi bilan bir qatorda milliy tafakkur, yangi ma'lumotlarga kreativ yondashish, obrazlarni tahlil qilishda ularni moslashtira olish ko'nikmasini ham rivojlanishiga olib keladi. shu boisdan ham ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan. Bundan tashqari Folklor an'analari asosida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan psixokorreksion olib borilgan ishlarning nazariy tahlilini yoritir ekanmiz, quyidagi usullarga to'xtalib o'tamiz.

- bolalar bilan ishlashda art-terapiya;
- tuzatish muammosi ustida ota-onalar bilan ishlash.

Yuqorida tavsiya etilgan uslublarni batafsil ko'rib chiqadigan bo'lsak, bolalar bilan ishlashda art-terapiya bu zamonaviy maktabgacha ta'limning mutassil takomillashganiga mos keladigan yangi tendensiyalar va texnologiyalar yangi didaktik yondashuvlarni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi. Bolani rivojlantirish va tarbiyalash jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida qo'llaniladigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Art-terapiya psixokorreksiyaning nisbatan yangi usuli bo'lib, Andrian Hill tomonidan 1938-yilda ishlab chiqilgan.

Zamonaviy ilm-fan, art-terapiya deganda, san'atning barcha turlaridan foydalanishni tushuniladi. Bu usul yordamida his-tuyg'ularni o'rganish va ularni ramziy ifoda etish imkonini beradi. Art-terapiya ongni rivojlantirish va o'zgartirish usuli bo'lib, turli shakllar orqali shaxs psixikasining ongsiz tomonlari va san'at turlari takomillashadi

Psixokorreksiya jarayonida art-terapiyadan foydalanish, birinchi navbatda bolaga cheksiz imkoniyatlarni, jumladan, ijodiy mahsulotlarda o'zini namoyon qilish va o'zini anglash imkoniyatini taqdim etadi.

Imagoterapiya-bu psixoterapiyaning bir turi bo'lib, unda terapevtik ta'sirga erishishning asosiy vositasi ishtirokchilarning ijodiy faolligini oshirish orqali ularning shaxsini rivojlantirish va boyitishdir.

Imagoterapiyaning asoschisi I.E.Volpert bo'lib, imagoterapiya jarayonida tobora ortib borayotgan murakkablikning texnik usullari qo'llaniladi: nasriy adabiy asarni yoki xalq ertagini qayta hikoya qilish va drammatizatsiya qilish, hikoyani teatrlashtirish. Ushbu turdagi terapiya bolalar va o'smirlar psixoterapiyasida keng qo'llaniladi.

T.Bradberryning yozishicha, art-terapiya har qanday yosh guruhida va potensial sog'lom odam uchun ham mo'ljallangan.

Art-terapiya maktabgacha yoshdagi bolaning har qanday ijodiy faoliyati, ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatadi.

Bu yo'nalishning quyidagi turlari mavjud:

- izoterapiya – vizual bilan bog'liq bo'lgan terapiya turi bo'lib, ijodkorlik ko'pincha chizish bilan foydalaniladi;
- o'yin terapiyasi – o'yin orqali psixo-tuzatishda foydalanish, shaxsiy rivojlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo'lib ular o'rtasidagi yaqin munosabat o'rnatishga hissa qo'shadi. Bolalarda o'z-o'zini hurmat qilishni oshirish, turli muloqot vaziyatlarida o'ziga ishonchni oshiradi;

- fototerapiya – terapiyaning bu turida slaydlar yoki fotosuratlardan foydalanish, psixologik muammolar, shuningdek, shaxsni rivojlantirish imkonini beradi;
- qum terapiyasi – rivojlanayotgan psixo-tuzatish usuli bo‘lib, ichki stressni hamda shaxsiy muammolarni bartaraf etishga yordam beradi;
- ertak terapiyasi – shakl sifatida ertakka asoslangan usul, ongni kengaytirishga, ijodkorlikni rivojlantirishga hamda atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga hissa qo‘shishadi;
- musiqa terapiyasi – musiqa va tovushlardan foydalanib xayol qilish, inson ovozi yordamida improvizatsiya va tanlangan musiqa asboblari yoki musiqani tinglash;
- raqs terapiyasi – harakat va raqsni targ‘ib qiluvshi jarayon bo‘lib, shaxsning jismoniy va hissiy holatini birlashtirish;
- rang terapiyasi – dori-darmon vositasisiz davolash usuli, bu biologik faol zonalarning har biriga asoslanadi, organizm ranglarining biriga ta’sir qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalarning o‘ziga bo‘lgan munosabatini adekvatligi, o‘z shaxsini qadrlashi tasavvurlari darajasiga, axborotlarni semantik moslashuvchanlik holati, obrazlarning orginalligi bilan uzviy bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.R.Barotov, E.M.Muxtorov O‘smirlarda o‘z-o‘zini psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari. Toshkent “Fan” nashriyoti 2008-yil.
2. O.Safarov. O‘zbek folklori. Darslik – T., Musiqa. 2010. - 5 b.
3. Imomnazarov M., Eshmuhamedova S. Milliy ma’naviyat asoslari.–T.: Islom universiteti, 2001. – 432 b.
4. Integratsiya nauki i shkolnoy praktiki. – M.: Prosvesheniye, 1986. -195 s.
5. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. – T.: O‘qituvchi, 2000.-207 b.